

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

"РЕФЕРАТ"

**MAVZU: MUSTAHKAM OILA – JAMIYAT
TAYANCHI**

BAJARDI:

U.AZIMOV

FARG'ONA - 2014

REJA

- 1.Oila jamiyatni ng asosiy bo‘g‘ini
- 2.Oila - shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy mezoni sifatida
- 3.Farzand tarbiyasida ota-onaning roli
- 4.Xulosa

Oila muhiti boia dunyoqarashini shakllantirish hamda axloq me'yorlarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Zero, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda oilada axloq va odobning dastlabki kurtaklari ildiz otadi, bola shaxsiyati hayotining birinchi yillaridan boshlab shakllanib boradi. U har kuni ko'rib, eshitib yurgan narsalarga qarab, o'z atrofida qilargalarga nisbatan tegishli munosabatda bonadi. Kattalarning yurish-turishi, qiladigan xatti-harakatlari, bolaga va atrofda qil odamlarga qanday qarashi — mana shularning hammasi boianing ma'naviy qiyofasi shakllanib borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalarga govdaklik vaqtidan boshlab axloq tarbiyasini berib borish zarur, Bu tarbiyaning uzoq muddatli, mashaqqatli jarayo'l ekanligi hech kimga sir emas. Bolalarda axloq, xulq-atvor va xatti-harakatni tarbiyalashda ularda so'z va ish birligini ta'min etish katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, munaqqidlar A.Munavvarov va M.Ma'murovlarning «Yaproq ildizidan quvvat oladi» nomli kitobiarida ta'kidlanganidek, «Bolaning odobli, axloqli va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun har bir oiladagi sharoit, oila boshliqlarining namuna bo'lishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning yaxshi odatlari, muomala madaniyati, so'zi bilan ishi birligi farzandlar uchun ibratdir». Biroq bunga ko'pchilik ota-onalar amal qilishmaydi. Misol uchun, farzandiga: «Ichma, chekma, yolg'on so'zlama» kabi nasihatlarini qiladi-yu, ammo o'zlarini bunday illatlardan tiya olishmaydi. Bu esa farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Chunki qush uyasida ko'rganini qiladi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, bolalik davrida hosil qilingan odatlar asta-sekin uning qalbiga singib, mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham kundalik turmushda bola odamlarning bir-biriga hurmat-e'tibor bilan qarashini, o'zaro yordam berib turishini, muloyimligi, sofdilligi, mehnatsevarligi kabi madaniy axloq namunalarini ko'rib turadigan bo'lishi kerak.

Axloqiy tarbiya boianing kelgusida ota-onalarga, atrofda qil kishilarga, jamoaga, jamiyatga, ona-vatanga, mehnatga, o'z burchiga munosabatini belgilaydi va asta-sekin shakllanib boradi. Uning asosiy vazifasi — jamiyatga munosib bo'lish, burch va ma'suliyat, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni har bir boianing ezgu niyatiga aylantirishdan iborat.

Shu o'rinda bolalarga axloqiy tarbiya berishda qil ba'zi-bir muhim jihatlariga e'tibor qaradshni maqsadga muvofiq, deb bilgan holda e'tiboringizga havola etamiz:

— axloqiy tarbiyani muntazamlilik va izchillik asosida olib borish. Bolalarga axloqiy fazilatlarining hammasini birdaniga singdirishning iloji yo'q. Bu fazilatlarining bolalarda tarkib topish jarayo'li ko'p yillarga cho'ziladi va shu boisdan ham bu ishda muntazamlilik bolishi kerak. Tarbiyalash jarayo'li juda murakkab jarayon bo'lib, u asta-sekin uzluksiz ravishda yangi malaka va ko'nikmalarni o'stirish hamda mustahkamlab borish yoli bilan amalga oshiriladi. Bu tarbiya jarayo'lining izchilligini belgilaydi;

— bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularning yosh av individual xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ishi uning dunyoga keigan kunidan boshlanadi. Bola oilada, bog'chada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mustaqil amaliy faoliyati davomida ham tarbiyaalanadi. Shuning uchun ham bolalarga singdirilgan tarbiya mazmuni ularning yoshiga, jismoniy tayyorligi, tushunchasiga, saviyasi va imko'liyatiga mos bo'lishi kerak;

— bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda bolalardagi ijobiy fazilatlarga tayanish, ularning xarakteri va xulqidagi eng yaxshi sifatlarni topishga intilish lozim. Bolalardagi salbiy sifatlarga qarshi kurashishda ulardagi ijobiy fazilatlardan foydalanish yaxshi samara beradi;

— bolalarni tarbiyalashda mahalla va jamoaning o'rnini beqiyos. Mahalla va jamoatchilikning bu haqdagi fikri katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Xalqimiz tomonidan, «Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» degan maqol bekorga aytilmagan.

Bolalar tarbiyasidagi nuqsonlarni ayrim hollarda ota-ona sezmasligi mumkin, lekin mahalla ahli buni darrov payqaydi va ota-onalar bilan birgalikda ularni tuzatishga harakat qiladi;

- bolalarga axloq tarbiyasi berishda faollik va ularning amaliy faoliyatida shart-sharoitlar yaratish zarur. Chunki axloq tarbiyasi quruq pand-nasihatdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Axloqiy his-tuyg'ular, odatlar va tushunchalar avvalo, amaliy faoliyatda shakllanib boradi;

- bolaning jismoniy va ruhiy jihatdan qanday rivojlanib borayotganligini mutaxassislar yordamida tekshirib turish ham katta ahamiyatga egadir. Rivojlanishni nazorat qilib borish orqali bolaning rivojlanish darajasini aniqlash va shu asosda axloqiy tarbiya berishning usulini) qo'llash lozim. Bu ishda ham ota-onalardan katta mas'uliyat talab qilinadi;

- bolalarning axloqiy tarbiyalashni yana bir muhim jihati ularga qo'yiladigan talab va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish o'rtasida birlik bo'lishi lozim. Tarbiya jarayo'lida maktab, oila, mahallaning qat'iy hamkorligi ostida bolalarga qo'yiladigan talablar va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish birgalikda hamjihatlik bilan olib borilsa, maqsadga muvofiq bonadi.

Har bir ota-ona mazkur tarbiya usuliari jarayo'lida ustalik bilan qo'llashi orqali yaxshi odatiarni farzandlar qalbiga singdirishi lozim. Bu erda ota-onalar, katta yoshdagi kishilar shaxsiy namunasi va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega bo'lib, bu bolalar axloqiy tarbiyasining o'zagini tashkil qiladi.

«Bolalar axloqiy tarbiyani oldinroq o'zi yashayotgan atrof-muhit va ko'chadagi bolalardan oladi. Bolalar suvga o'xshaydilar, suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomo'l axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchidan qabul qiladigan».

Adabiyotimiz namoyandalaridan biri — Abdurauf Fitratning «Rahbari najot» asaridan ma'lum bo'lishicha, axloq tarbiyasi murakkab jarayo'l bo'lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bir-birini to'ldirib borsagina bolalarga axloq tarbiyasi berishda ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish milliy mafkuramizning asosiy tamoyillaridan biridir. Shu sababli ham bolalarga axloqiy tarbiya berish har birimizning kundalik ishimizga aylanishi lozim.

Individning shaxs sifatida shakllanishida oilaning o'rni

Mazkur maqolada individning shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli oshib borishi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga O'zbekistonda oilani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mohiyati ochib berilgan.

Demokratik huquqiy davlat va jamiyat qurish jarayoni fuqarolarni ijtimoiylashuvi va individning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni bilan bog'liq individning shaxs sifatida shakllanishi ko'p omilli bo'lib, ana shu omillar ichida oila muhim rol o'ynaydi, demak individning shaxs sifatida shakllanish jarayonida oila alohida o'rin tutadi. Sotsiologiyada mikromuhit ko'p bo'g'inli bo'lib har bir bo'g'inning o'ziga xos ijtimoiy tajribalarni singdirish va individni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Individning shaxs sifatida voyaga eta borishida u mansub bo'lgan tarixiy sharoitlar, vaziyat, ijtimoiy-siyosiy,

xuquqiy va ma'naviy muhit katta rol o'ynaydi. Zero makromuhit mikromuhitni individni tarbiyasidagi mezon belgilovchi omil hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda demokratiya jahon miqyosida keng yoyilib borayotgan bir sharoitda individning ijtimoiylashuvi zarur va shart bo'lgan holat yuzaga keldi.

Shuning uchun ham hozirgi zamon oilalarining asosiy vazifasi sifatida sotsiologlar quyidagilarni muhim mezon deb e'tirof etmoqdalar:

- individni ijtimoiylashuvini ta'minlash asosida tarbiyalash;
- individni emotsional barqarorligini va ruxiy sabr-bardoshli bo'lishini ta'minlash;
- jismoniy ruxiy sog'lomligini ta'minlash;
- individni har tomonlama kamol topishini ta'minlash;
- balog'at yoshiga etmagan mehnatga yoroqsiz oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvatlash kabi masalalarga hozir zamon oilasi alohida e'tibor bilan qarashlari zarurligini taqozo etmoqda.

Haqiqatdan ham oila individning shaxs sifatida shakllanib qaror topishida muhim bo'g'in hisoblanadi. Zero oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ana shu ma'noda olganda xalqning, millatning o'tmish va kelajak yutuqlari, vatanning shon-shuxrati ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotida oila hamma zamonlarda ham muhim rol o'ynagan. SHuning uchun ham sharqda oila institutining roliga katta e'tibor bilan qarab kelingan. "SHarqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik, hamjihatlilikka erishiladi. Birobarin mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoishtalik va barqarorlik hukm suradi... Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli ana'nalar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mexr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan " — deb ta'kidlaydi, I.A.Karimov.

Oila va jamiyat o'zaro uzviy bog'liqdir. Oila jamiyatning ijtimoiy ma'naviy bo'g'ini, kichik bir qismidir. SHuning uchun ham oila muhiti kattalashgan shaklda jamiyatda namoyon bo'ladi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, barcha insoniy hislatlar individda namoyon bo'lsagina u shaxs sifatida shakllanganligini o'zining xatti-harakatlarida, odamlar o'rtasidagi munosabatlarida ro'yobga chiqaradi. YUqorida ta'kidlagan insoniy hislatlarga shaxsni ijtimoiylashuvi jarayonida yana bir qator xususiyatlar qo'shib boradi. Tashkilotchilik, tashabbuskorlik, etakchilik, mehnatsevarlik, zamonaviy kasb-hunarlar va texnologiyalarni o'zlashtirish, huquqiy-siyosiy ong va madaniyatga ega bo'lish kabilar

umumlashib shaxsni vujudga keltiradi. Bu hislatlar individni shaxsga aylanishiga oiladan keyingi bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyasi, o'rta maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonlarida shakllanadi.

Demak, individni shaxsga aylanishi, ijtimoiylashuvi jarayonida bir qator agentlar ishtirok etadi. Lekin asosiy fundamentni oila qo'yadi. SHuning uchun ham sotsiologik nazariyada hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalarini belgilashda zamon ruhi qat'iy hisobga olingan. SHaxs tarbiyasida zamonaviy oilaga qo'yilgan talablarni bajarilishi zamonaviy shaxsni shakllanishiga xizmat qiladi. CHunki bu talablar o'z mohiyatiga, chuqur mazmun-ma'nosiga ega. Individni emotsional beqarorligi uning individ sifatida qolib ketishiga olib keladi. CHunki emotsional, ruhiy beqaror individ jamiyat bilan muloqatga, muomalaga kirisha olmaydi, jamiyatdan ajralib qoladi. Demak, shaxs darajasiga ko'tarila olmaydi. Jamiyatdan ajralib qolgan individ u inson, lekin shaxs emas. SHaxs deyilganda umuman insonni emas, balki jamiyatda faol, alohida xususiyatlar mujassamlashgan odam tushuniladi. Bu xususiyatlar yuqorida qayd etildi. Lekin ana shu xususiyatlarni insonda qaror topishi uchun etarli omillar mavjud bo'lishi zarur. Bu omillarni yaratilishi u yoki bu davlatga, ya'ni aniqroq qilib aytganda inson yashayotgan makon va zamonga bog'liqdir.

Demokratiyaning keng rivojlanib borishi jarayonida shaxsning shaxs sifatida shakllanishi uchun ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni va sub'ektiv omillarning uzviy birligi ta'siri ostida shakllanadi. SHaxs kamolotida ob'ektiv shart-sharoitlar xal qiluvchi rol o'ynaydi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda hamma ob'ektiv, sub'ektiv shart-sharoitlar etarli darajada mavjuddir. Mamlaktni siyosiy modernizatsiyalash shaxsning tabiiy va pozitiv erkinliklari, xaq-huquqlarni ta'minlab berilganligining ob'ektiv omil bo'lsa, oila, maktab, maorif, oliy ilmgohlar bevosita sub'ektlarning faoliyati bilan bog'liq holda qaralsa, ana shu sub'ektiv omilning barcha xatti-harakatlari, faoliyati, ularga qo'yilgan talablar individning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda oilani rivojlantirish, oila muammolarini hal etish ezgu maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1998 yilni "Oila yili" deb e'lon qilinishi va davlat dasturini qabul qilinishi hamda oila manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab qonunlar, qarorlarni chiqarilishining maqsadi va ma'nosi barkamol insonni tarbiyalash, insonni shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga katta e'tibor bilan qarab, barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Insonni shaxs sifatida shakllanishi uchun hamma omillar ishga solingan, deb aytishga barcha asoslar mavjud.